

AXBOROT TA'LIM MUHITIDA TALABALARGA PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA DIDAKTIK TIZIMNING MOHIYATI.

Ne'matova Hilola Ikrom qizi

Navoiy davlat universiteti

“Maktabgacha ta'lim” kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada axborot ta'lim muhitida pedagogika fanlarini o'qitishning dolzarbligi, zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish zaruriyati, shuningdek, didaktik tizimning samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются актуальность преподавания педагогических наук в информационно-образовательной среде, необходимость совершенствования образовательного процесса на основе современных технологий, а также пути повышения эффективности дидактической системы.*

Annotation: *This article analyzes the relevance of teaching pedagogical sciences in an information education environment, the need to improve the educational process based on modern technologies, as well as ways to increase the efficiency of the didactic system.*

Kalit so'zlar: *Axborot - ta'lim muhiti, pedagogika, didaktik tizim, innovatsion texnologiyalar, masofaviy ta'lim, talabalar faolligi.*

Ключевые слова: *Информационно-образовательная среда, педагогика, дидактическая система, инновационные технологии, дистанционное обучение, активность студентов.*

Keywords: *Information - educational environment, pedagogy, didactic system, innovative technologies, distance learning, student activity.*

Zamonaviy ta'lim tizimi, tezkor axborot almashinuvi, raqamlashtirish va global raqobat sharoitida jadal rivojlanmoqda. Shu boisdan ham pedagogika fanlarini o'qitishda an'anaviy yondashuvlardan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan yangi didaktik tizimlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zaruriyati tug'ilmoqda. Bugungi talaba – bu faqat bilim oluvchi emas,

balki ularni izlovchi, tahlil qiluvchi va qo'llay oluvchi faol shaxs sifatida shakllanmoqda.

Axborot ta'lim muhitida talabalarni pedagogika fanlarini o'qitishga oid ko'plab adabiyotlar mavjud. Bu asarlarni o'rganib quyidagilarni tahlil qilish mumkin: didaktik tizimning nazariy va tarixiy asoslari, zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda paydo bo'lgan yangicha didaktik modellarning turlari, talabalarning individual va faol ishtirokini rag'batlantiruvchi metodik yondashuvlar, axborot muhitining pedagogika fanlariga integratsiyasi haqida ma'lumotlarni. Ushbu maqoladan asosiy maqsad qilib, axborot ta'lim muhitida talabalarga pedagogika fanlarini samarali o'qitish uchun zamonaviy didaktik tizimni ishlab chiqish va takomillashtirish jarayoni olindi. Shu asosda quyidagi metodologik yondashuv qo'llanildi: ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili, didaktik tizimlar nazariyasini va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha ilmiy manbalarni o'rganish.

Talabalarga pedagogika fanlarini o'qitishda axborot ta'lim muhiti bu - axborot resurslari, ta'lim texnologiyalari, interaktiv vositalar va raqamli platformalarni o'z ichiga olgan, talaba va o'qituvchining o'zaro ta'sirini ta'minlovchi makondir. Bunday muhitda o'qitish nafaqat bilim berish, balki tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda ta'lim sohasining har qanday yo'nalishida axborot resurslaridan foydalanishning dolzarbligi quyidagi jihatlarida namoyon bo'ladi:

1. Ta'lim tizimining raqamlashtirilishi – globallashtirish va texnologik taraqqiyot sharoitida ta'lim jarayonlari tobora raqamli platformalarga o'tayapti. Bu holat didaktik tizimni yangi sharoitga mos holda qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

2. Zamonaviy o'quvchining ehtiyojlari – bugungi talabalar faqat passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi, izlovchi, tanqidiy fikrlovchi shaxslar bo'lib borayotganligi sababli, ularni o'qitishda interaktiv, moslashuvchan va individual yondashuv zarur.

3. Pedagogik kadrlar tayyorlash sifati – kelajakdagi o'qituvchilar zamonaviy texnologiyalarni puxta egallagan, innovatsion metodlarni qo'llay oladigan bo'lishi kerak. Bu esa, aynan pedagogika fanlarini axborot muhitida o'qitish tizimini takomillashtirish orqali amalga oshadi.

4. Ta’lim samaradorligini oshirish – yaxshi tashkil etilgan axborot-ta’lim muhiti o’qitish jarayonining sifat ko’rsatkichlarini oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko’nikmalarni shakllantirishni jadallashtiradi.

5. Masofaviy va gibrid ta’lim shakllarining rivojlanishi – pandemiya tajribasi shuni ko’rsatdiki, o’qitish jarayonlari har qanday sharoitda davom etishi uchun raqamli va moslashuvchan didaktik tizimlar zarur.

Xo’sh, axborot ta’lim muhitida fanlarni o’qitishda didaktik tizim qanday amalga oshiriladi?

Didaktik tizim – bu o’qitish maqsadi, mazmuni, metodlari, shakllari, vositalari va natijalari kabi komponentlardan tashkil topgan yaxlit tizimdir. Axborot ta’lim muhitida - didaktik tizimning vazifalari, o’qitish jarayonini ilmiy asoslash, o’quvchilar uchun faol o’rgatuvchi muhitni yaratish, ta’lim mazmuni va metodikasini optimallashtirish, baholash mezonlarini aniq belgilashdir.

Axborot ta’lim muhitida bu tizimni takomillashtirish quyidagi yo’nalishlarda olib borilishi mumkin:

1. Mazmunni yangilash – bu ta’lim mazmunini jamiyatning yangilangan talablari, ilm-fan rivoji, texnologik taraqqiyot, mehnat bozori ehtiyojlari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida qayta ko’rib chiqish va modernizatsiya qilish jarayonidir. Mazmunni yangilashning markazida uchta asosiy omil turadi:

a) Zamonaviy pedagogik g’oyalar - konstruktivizm, kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, faol ta’lim g’oyalarni misol qilib keltirsak bo’ladi.

b) Zamonaviy metodologiyalar - interfaol metodologiyalar, STEAM ta’lim texnologiyalari, portfolio, rubrikalar, ko’nikma xaritalari, mazmunni o’zlashtirish ko’rsatkichlari real faoliyat orqali aniqlanishlarini misol qilsak bo’ladi.

c) Xalqaro tajribalarni integratsiya qilish - rivojlangan davlatlarning tajribalarini, xalqaro PISA dasturlarini misol qilib keltirsak bo’ladi.

2. Metodlarni diversifikatsiya qilish – muammoli, interaktiv, loyiha asosidagi o’qitish uslublarini qo’llash;

3. Vositalarni raqamlashtirish – elektron darsliklar, test tizimlari, videodarslar, sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish;

4. **Teskari aloqani kuchaytirish** — platformalar orqali muntazam baholash va fikr-mulohaza olish.

Shularni inobatga olgan holda zamonaviy talablarda didaktik tizim qanday bo‘lishi kerak?

- Moslashuvchan va individual yondashuvga ega;
- Raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan;
- Talabaning faol ishtirokini rag‘batlantiruvchi;
- Tahliliy va tanqidiy tafakkurni rivojlantiruvchi;

Axborot ta’lim muhitida pedagogika fanlarini o‘qitish didaktik tizimini takomillashtirish — zamonaviy ta’limning ajralmas qismidir. Bu tizimni izchil rivojlantirish orqali nafaqat bilim, balki kompetensiyalar, hayotiy ko‘nikmalar va ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi pedagogik kadrlarni tayyorlash mumkin. Yangi yondashuvlar, texnologiyalar va metodikalar ta’lim sifatini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov N., Tojiboyev B. Pedagogika asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti, 2021.
2. Karimov E. Zamonaviy ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Saidahmedov N. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
4. Qodirov M. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar va ta’lim. – Samarqand: SamDU, 2022.